



BALIQCHILIKDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

PhD Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich

Alfraganus universitety,

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0003-5700-1768

amirbek383@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada baliqchilik xo'jaliklarida "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) ni qo'llashning uslubiy jihatlarini asoslash masalalari yoritilgan. Xususan, baliqchilikdagi biologik aktivlarga nisbatan 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) ning umumiy qoidalari asosida ularni tan olishning qoidalari shakllantirilgan; baliqchilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulotlar tannarxini hisoblashni 41-MHXS(IAS)ga muvofiq takomillashtirish yo'nalishlari ko'rsatilgan, hamda biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar turkumlandi. Shuningdek, baliqchilik mahsulotlarini baholash va hisobga olishda xalqaro tajribadan foydalanish MHXS (IAS) talablarini ta'minlash hamda xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuv (uyg'unlashuv)ga imkon berdi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot xalqaro standartlari(MHXS-IAS), biologik aktivlar, biotransformatsiyalanish, ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulotlar tannarxini hisoblash, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, haqqoniy qiymat.

РАСЧЕТ БИОЛОГИЧЕСКИХ АКТИВОВ В РЫБОЛОВСТВЕ НА ОСНОВЕ МСФО УЛУЧШЕНИЕ

PhD Айтимбетов Амирбек Койшибекович

Университет Альфрагануса,

Ташкентский Международный Университет Кимё

Аннотация. В данной статье освещены вопросы обоснования методических аспектов применения МСФО «Сельское хозяйство» в рыбном хозяйстве. В частности, в отношении биологических активов в рыбном хозяйстве правила их признания сформированы на основе общих правил МСФО № 41 «Сельское хозяйство»; Указаны направления совершенствования учета себестоимости продукции и калькуляции продукции в рыбном хозяйстве в соответствии с МСФО № 41, а также классифицированы биологические активы и продукция, полученная из них. Также использование международного опыта оценки и учета рыбной продукции позволило удовлетворить требования МСФО и интегрироваться (гармонизироваться) с международным сообществом.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), биологические активы, биотрансформация, учет себестоимости продукции, калькуляция себестоимости продукции, долгосрочные активы, оборотные активы, справедливая стоимость.

CALCULATION OF BIOLOGICAL ASSETS IN FISHERIES BASED ON IFRS IMPROVEMENT

PhD Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich

Alfraganus University,

Kimyo International University in Tashkent

Abstract. *In this article, the issues of justifying the methodological aspects of the application of the IAS "Agriculture" in fisheries are covered. In particular, in relation to biological assets in fisheries, the rules for their recognition have been formulated based on the general rules of the IAS No. 41 "Agriculture"; directions for improving production cost accounting and product costing in fisheries in accordance with IAS No. 41 are indicated, and biological assets and products derived from them are categorized. Also, the use of international experience in the evaluation and accounting of fishery products made it possible to meet the requirements of the IAS and to integrate (harmonize) with the international community.*

Keywords: *international Financial Reporting Standards (IAS), biological assets, biotransformation, production cost accounting, product costing, long-term assets, current assets, fair value.*

Kirish.

Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, investitsiyalar jalb qilinishi va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash buxgalteriya hisobining qo'llanilish chegaralarini kengaytirmoqda. Natijada, yangi hisob obyektlari va buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilarning yangi toifalari paydo bo'lmoqda. Shuning uchun, buxgalteriya hisobi oldida uni yangi sharoitlarga moslashtirish bo'yicha vazifalar paydo bo'lmoqda. Hisob axborotlari hajmining doimiy o'sib borishi, uning sifatiga zarar yetkazmasdan, buxgalteriya hisobi shakllari va uslublarini moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS-IAS) asosida yanada takomillashtirib borishni, EHM yordamida boshlang'ich hisob axborotlarini ro'yxatga olish va ishlov berish vaqtini qisqartirishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Baliqchilik xo'jaliklarida moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini(mhxs-ias) qo'llash tushunchasining ilmiy ta'riflari va tavsiflari xorijlik va mamlakatimiz olimlari tomonidan juda keng qamrovli yoritilgan. Jumladan, xorijlik olimlar Xorujiy va Dorjiyevlar (2010) fikriga ko'ra, "baliq mahsulotlarini haqqoniy qiymati bo'yicha baholash, nafaqat tashkilotlarning moliyaviy va mulkiy holatini obyektiv baholash, balki baliqchilikdagi biologik aktivlar(chavoqlar, segoletkalar, bir yilliklar, to'ldiruvchi yosh baliqlar, tovar baliqlar)ning adolatli qiymati o'zgarishida, mos ravishda daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarning ham o'zgarishida ifodalanadigan, ular biotransformatsiyalanishining oqibatlarini aks ettirish uchun ham zarur" deb hisoblaydi.

Mamlakatimiz olimlaridan Dusmuratov (2022) «Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tajribalari ko'rsatishicha, hozirgi paytda xo'jalik qonunchiligini, jumladan hisob tizimini ham unifikatsiyalash ishlari olib borilmoqda. Xalqaro standartlarni joriy qilish uzoq davom etadigan va murakkab jarayondir. Hozirgi vaqtgacha chiqarilgan barcha moliyaviy hisobot xalqaro standartlari yagona tizimni tashkil etib, bir-birlari bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir» deb o'z yondashuvini keltirib o'tadi.

Iqtisodchi olim Menglikulov (2019) "biologik aktivlar" tushunchasi, ular hisobi va auditining ayrim jihatlari mamlakatimiz olimlari hamda mutaxassislari tomonidan davriy nashrlarda muhokama qilinmoqda, lekin hozircha normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud emas, deb izohlaydi.

Iqtisodchi olim Boltayev (2024) biologik aktivlar hisobining uslubiy jihatlari

takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, u asosan tadbirkorlik sub'ektlarida biologik aktivlar bilan bog'liq daromadlar va xarajatlarni hisobga olishda foydalanish uchun tegishli schyotlar taklif qilgan hamda ular yordamida xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish algoritmi ko'rsatib o'tadi.

Darhaqiqat, «har bir standart uni ishlab chiqishda asos bo'luvchi maqsad va konsepsiyalar mazkur standartga kiruvchi masalalar ro'yxati; ishlatiladigan atamalarning ta'rifi; ushbu standartni qo'llash mezonlari; hisobga olish metodlari va o'lchash asboblari; axborotlarni ochish usullari va tushuntirish izohlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro buxgalteriya standartlari tavsiya tavsifiga ega bo'lib, ularni qo'llash alohida davlat organlariga bog'liq.

Ayrim mamlakatlar Malayziya, Singapur, Zimbabve xalqaro standartlardan bevosita milliy standartlar sifatida foydalansalar, boshqalari (Misr, Hindiston, Keniya) ularga asosan o'zlarining milliy standartlarini ishlab chiqadilar. AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliyada milliy hisob tizimlari shu tarzda rivojlanganki, ularning milliy hisob standartlari xalqaro standartlarga mos keladi» (Хоружий, Доржиев, 2010).

41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) ga muvofiq esa biologik aktivlar deganda "hayvonlar yoki o'simliklar" tushunilib, ayni chog'da "biologik aktiv" tushunchasi "qishloq xo'jalik mahsulotlari" dan farqlanadi. So'nggi tushuncha "kompaniyaning biologik aktivlaridan yig'ilgan mahsulotlari" ni bildiradi. Ushbu tushunchalar o'rtasidagi farqlardan kelib chiqib, 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) da qishloq xo'jalik faoliyati: "sotish, qishloq xo'jalik mahsulotlari olish yoki qo'shimcha aktivlarni ishlab chiqarish maqsadida biologik aktivlarning biotransformatsiyalanishini boshqarish" (ACCA, 2011) deb ta'riflangan. Shuningdek, «biotransformatsiya – o'sish, degeneratsiyalanish, mahsulot ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish jarayonlaridan iborat bo'lib, ular natijasida biologik aktivlarda sifat yoki miqdor o'zga oishlari sodir bo'ladi» (ACCA, 2011).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, biologik aktivlar fuqarolik huquqining obykti ham hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida "ko'p yillik dov-daraxtlar" (83-modda) va "hayvonlar" (93-modda) jismoniy va yuridik shaxslarga mulk huquqi asosida, ya'ni ashyoviy huquq obyektleri sifatida tegishli bo'lgan mol-mulk obyektleri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 83-moddasiga muvofiq: "ko'p yillik dov-daraxtlar" ko'chmas mulklar jumlasiga kiritilgan (Kodeks, 2022), 93-moddasida esa: "qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mol-mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar hayvonlarga nisbatan ham qo'llaniladi" (Kodeks, 2022) deb ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Fuqarolik Kodeksi mol-mulklarni ishlatishdan olingan mevalar, mahsulotlar va daromadlar, shu jumladan, biologik aktivlar hisoblanganlari ham, alohida ko'rsatilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida Fuqarolik Kodeksining 92-moddasida: "ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ashyo egasiga tegishlidir" deb ko'rsatilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifatida dialektika; ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, induktiv-deduktiv, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash kabi nazariy umum-ilmiy metodlardan foydalanildi. Umum-ilmiy empirik metodlardan esa, ilmiy va qomusiy manbalarni sharhlash, kuzatish va retrospektiv tahlil usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ilmiy-uslubiy va normativ-huquqiy manbalarni sharhlash shuni ko'rsatadiki, 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXSda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish maqsadlarida O'zbekiston amaliyoti uchun yangi tushunchalar mavjud. Shu bois, baliqchilik xo'jaliklarida Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS-IAS), xususan, 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli

MHXS(IAS) ni qo'llashning uslubiy jihatlarini asoslash maqsadida mazkur tushunchalarning qiyosiy tavsifini keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

41-sonli “Qishloq xo‘jaligi” nomli MHXS (IAS) da va O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida biologik ativlar buxgalteriya hisobiga oid tushunchalar qiyosiy tavsifi

Tushuncha	41-sonli“Qishloq xo‘jaligi” nomli MHXS(IAS) da	O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida
Biologik aktiv	Qishloq xo‘jalik chorva mollari (katta yoshdagi mahsuldor va nasldor mollar, o‘stirishdagi va boquvdagi mollar, parrandalar, quyonlar, hayvonlar), industrial baliqchilikdagi baliqlar va akvakulturadagi boshqa tirik obyektlar, qishloq xo‘jalik o‘simliklari (bir yillik va ko‘p yillik o‘simliklar), ko‘p yillik daraxtlar, o‘rmon daraxtlari.	Qishloq xo‘jalik o‘simliklari, ko‘p yillik o‘simliklar, cho qoramolchilik (sut yoki go‘sh t yo‘nalishi), yilqichilik, tuyachilik, qo‘ychilik, echkichi-lik, cho‘chqachilik, quyonchilik, parrandachilik, baliqchilik va h.k.)
Biotransformatsiyalanish	O‘sinh jarayonlari, degeneratsiyalanish, mahsulotlar ishlab chiqarish va takror barpo etish	Ishlab chiqarish (qishloq xo‘jalik ekinlarini parvarishlash, chorva mollarini saqlash)
Balans qiymati	Aktiv balansda tan olinadigan summa	Boshlang‘ich va qoldiq qiymati
Biologik aktivlarga amortizatsiya hisoblash	Tannarxi bo‘yicha hisobga olinadigan, katta yoshdagi mahsuldor mollar bo‘yicha hisoblandi	Ishchi hayvonlardan tashqari, barcha biologik aktivlarga amortizatsiya hisoblanmaydi.
Haqqoniy baho	Haqqoniy qiymat – bu bir-birlaridan o‘zaro yaxshi xabardor va mustaqil bo‘lgan tomonlarning biron-bir bitimini amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatni bajarishlari uchun yetarli bo‘lgan pul mablag‘lari summasi	O‘zbekiston amaliyotida mavjud emas
Faol bozor	Faol bozor shakllangan: tovarlar birxilligi, xaridorlar va sotuvchilar ma‘lum, baholar to‘g‘risidagi axborotlar ochiq	Faol bozor to‘liq shakllanmagan. Birjalar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda
Qishloq xo‘jalik faoliyati	Sotish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari olish yoki qo‘shimcha aktivlarni ishlab chiqarish maqsadida biologik aktivlar-ning biotransformatsiyalanishini boshqarish.	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish
Qishloq xo‘jalik mahsulotlari	Biologik aktivlar yig‘ib olingan mahsulotlar	Tayyor mahsulotlar, urug‘lik, ozuqalar, chorva mollarining qo‘shimcha o‘sishi
Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yig‘ishtirish	Biologik aktivlardan mahsulotlarni ajratib olish	Mahsulotlar chiqishi

1-jadval ma‘lumotlari shundan dalolat beradiki, 41-sonli “Qishloq xo‘jaligi” nomli MHXS(IAS) da keltirilgan ko‘pchilik tushunchalar O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari va boshqa manbalarda ham mavjud bo‘lib, ular deyarli bir xil ta‘riflangan hamda talqin qilingan.

Shunday qilib, huquq nuqtayi nazaridan, ko‘p yillik dov-daraxtlar va hayvonlar ashyo, mol-mulk obyekti, fuqarolik huquqi obyekti, tuzilayotgan shartnomalar predmeti sifatida boshqa ashyoviy mol-mulklardan prinsipial farq qilmaydi. Bu jihat ularni fuqarolik huquqining maxsus kategoriyasi sifatida ajratishni va qandaydir maxsus norma shakllantirishni talab

qilmaydi. Aynan shunday yondashuv O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobini tartibga soladigan normativ hujjatlarida o'z aksini topgan.

Baliqchilikdagi biologik aktivlarga nisbatan 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) ning umumiy qoidalarini asosida ularni tan olishning quyidagi qoidalarini shakllantiriladi:

➤ korxonaga biologik aktivlarni o'tgan hodisalar natijasida (biotransformatsiyalanishi bo'yicha) nazorat qiladi;

➤ korxonaga kelgusida biologik aktivlar bilan bog'liq bo'lgan daromadlar olinish ehtimoli;

➤ biologik aktivlarning adolatli qiymati yoki tannarxini yetarli darajadagi ishonchlik bilan o'lchash mumkinligi.

41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) ga muvofiq esa baliqchilikdagi biologik aktivlar tarkibi va ularning o'sishining natijalarini aniqlash zarur. Shuningdek, baliqchilikdagi biologik aktivlar, asosan baliqlar va ularning rivojlanish natijalarini buxgalteriya hisobining sintetik va analitik schyotlarida aks ettirish tartibini ishlab chiqish, uni xalqaro hisob amaliyotiga yaqinlashtirish imkonini beradi. Lekin, hozirga qadar 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) talablariga javob beradigan va mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining, xususan baliqchilik tarmog'ining tashkiliy-texnologik, biologik va boshqa xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) hamda shunga o'xshash boshqa normativ hujjatlar ishlab chiqilmagan. Fikrimizcha, 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) qoidalarini esa, baliqchilik tarmog'i xo'jaliklari amaliyotiga to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning imkoni yo'q.

Shu munosabat bilan, baliqchilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulotlar tannarxini hisoblashni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari:

- birinchidan, baliqchilik tarmog'i ishlab chiqarishning tashkiliy texnologik xususiyatlarini aks ettiradigan normativ xujjatlar (Buxgalteriya hisobi milliy standartlari, nizomlar va b). Eng bo'lmaganda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

- ikkinchidan, 41 sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS(IAS) ga sharhlar, uni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqishdan iborat.

Fikrimizcha, ushbu masalalarni hal etish uchun, avvalo, baliqchilikdagi biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlarni ilmiy jihatdan ta'riflash va turkumlash zarur. Shuningdek, ularning haqqoniy bahosini aniqlash va hisobga olish uslublarini ishlab chiqish lozim. Bu o'z navbatida baliqchilik biznesini samarali boshqarish va resurslar salohiyatini asosliroq baholashga zamin yaratadi

41-sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS(IAS) qoidalarini va O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan karpsimon baliqchilikka ixtisoslashgan to'liq tizimli yirik xo'jaliklar amaliyotini o'rganish natijalariga asoslanib, baliqchilikdagi biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar turkumini quyidagicha taqdim etamiz (2-jadval).

2-jadval

Baliqchilikdagi biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlarning turkumlanishi

Biologik aktivlar	Olinadigan mahsulotlar
Mahsuldor urg'ochi baliqlar	Uvildiriq (ikra)
Mahsuldor erkak baliqlar	
Lichinkalar	Segoletkalar
Chavoq(malk)lar	
Segoletkalar	
Bir yillik baliqlar	Sotiladigan (tovar) baliqlar
Ikki yillik baliqlar	
Yaylov hovuzlarida boqilayotgan baliqlar	

Baliqchilikda biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlarni bunday turkumlash: *birinchidan*, ularning buxgalteriya hisobini (sintetik va analitik hisobni) tarmoqning ishlab chiqarish va tashkiliy-texnologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish, natijada, hisob axborotlarining tezkorligi va ishonchligini hamda nazoratini ta'minlaydi;

ikkinchidan, mamlakatimizda buxgalteriya hisobi amaliyotini moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS-IAS), xususan, 41-sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS qoidalariga muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Baliqchilikda biologik aktivlar biotransformatsiyalanishi natijasida ularning miqdori va sifati o'zgaradi. Bu jarayonni boshqarish uni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy-texnologik va boshqa zarur shart-sharoitlar yaratilishini bildiradi. Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan, boshqaruv mazkur holatda biologik aktivlar biotransformatsiyalanishida sodir bo'ladigan miqdor va sifat ko'rsatkichlarini kuzatish, o'lchash, baholash va nazorat qilish hamda haqqoniy qiymat bo'yicha ifodalashni bildiradi.

Fikrimizcha, 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) va buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishga doir O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining qoidalari o'rtasidagi yana bitta muhim farq, aktivlarni baholash va qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha axborotlarni ochib berish prinsiplaridan iborat. Bulardan eng asosiysi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini haqqoniy qiymati bo'yicha baholashdir. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jalik mahsulotlarining faol bozori deyarli shakllanmaganligi bois, bu ishni amalga oshirish o'ta murakkab hisoblanadi.

41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) da belgilanishicha, qishloq xo'jalik mahsulotlarining faol bozori bo'lmagan ayni chog'da, kompaniya haqqoniy qiymatni aniqlash uchun quyidagi bitta yoki bir nechta ko'rsatkichlardan foydalanadi:

« - bozordagi so'nggi bitim bo'yicha baho. Bunda bitim amalga oshirilgan sana va hisobot davri oralig'ida xo'jalik sharoitlari jiddiy o'zgarmagan bo'lishi lozim;

- aynan o'xshash aktivlarning, o'zgarishlar hisobga olingan holda tuzatishlar kiritilgan, bozor baholari;

- tarmoq ko'rsatkichlari, masalan, bitta lotok, bushel yoki gektar hisobiga bog'dorchilik ekinlari va bir kilogramm go'shtga hisoblab o'tkazilgan yirik shoxdor qoramollar qiymati».

41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS(IAS) ga muvofiq "Haqqoniy qiymat – bu bir-birlaridan o'zaro yaxshi xabardor va mustaqil bo'lgan tomonlarning biron-bir bitimini amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatni bajarishlari uchun yetarli bo'lgan pul mablag'lari summasi" (ACCA, 2011).

41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS (IAS) qoidalarini qo'llash chog'ida biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini yetarli darajadagi ishonchlik bilan aniqlash, ya'ni bunday baholash ishonchli deb hisoblash mumkin, degan faraz (taxmin)dan kelib chiqish zarur. 41-sonli MHXS(IAS) ga muvofiq, mazkur faraz biologik aktivlar uchun bozor baholari va tegishli ko'rsatkichlar mavjud bo'lmaganida, haqqoniy qiymatning muqobil hisob-kitoblarini esa ishonchli deb hisoblash mumkin bo'lmaganida, ularning birinchi marotaba tan olinish paytida rad etish mumkin. Bu holda biologik aktivlar qadrsizlanishidan ko'rilgan zararlar va ularga hisoblangan amortizatsiya chegirib tashlangan holda baholanishi lozim. Biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini yetarli darajadagi ishonch bilan aniqlash imkoniyati paydo bo'lishi bilan, kompaniya darhol taxmin qilinayotgan sotish xarajatlarini chegirgan holda adolatli qiymat bo'yicha baholashga o'tishi mumkin (ACCA, 2011).


Biologik aktivlarni hisobda tan olish chog'ida, ularning haqqoniy qiymatini aniqlash imkoni yo'q bo'ladigan vaziyatlar, istisno hollarda uchraydi. 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS (IAS) qoidalariga ko'ra esa, "biologik aktivlar dastlabki tan olish va har bir hisobot sanasiga adolatli qiymat bo'yicha sotish xarajatlari chegirib tashlangan holda baholanishi lozim" (ACCA, 2011).

41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli MHXS (IAS)ga muvofiq sotish xarajatlariga brokerlar va dilerlarga to'lanadigan summalar, tartibga soluvchi organlar va tovar birjalari yig'implari, mol-

mulklarni berish uchun soliqlar, hamda bojlar kiradi. Sotish xarajatlariga aktivlarni bozorga yetkazish bo'yicha transport xarajatlari va boshqa xarajatlar kiritilmaydi.

Hozirgi vaqtda biologik aktivlarni nafaqat baholashda, balki turkumlashda ham muammolar mavjud. 41-sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS (IAS)ga muvofiq biologik aktivlar ularning muomalada bo'lish muddatiga ko'ra uzoq muddatli va joriy(qisqa muddatli) biologik aktivlarga bo'linadi. Joriy(qisqa muddatli) biologik aktivlar deganda 12 oy davomida sotilishi yoki iste'mol qilinishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorva mollari, xususan, baliqlar ham, tushuniladi. Boshqa barcha biologik aktivlar uzoq muddatli deb hisoblanadi.

Xalqaro tajriba va mamlakatimiz amaliyotini tadqiq qilish natijalarini umumlashtirish hamda ularni uyg'unlashtirish asosida biologik aktivlarning turkumlanishini umuman qishloq xo'jaligi, xususan, baliqchilik tarmog'i bo'yicha quyidagicha taqdim etish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Biologik aktivlarning turkumlanishi


Iste'mol qilinadigan biologik aktivlar qishloq xo'jalik mahsulotlari (ekinlar hosili, chorvachilik mahsulotlari) ko'rinishida yig'ib olinadigan yoki sotiladigan biologik aktivlardir. Hosil(mahsulot) beradigan biologik aktivlar – bu qishloq xo'jalik mahsulotlari emas, balki o'zi-o'zini qayta tiklaydigan, ya'ni iste'mol qilinib, dastlabki shaklini yo'qotmaydigan obyektlar. Shuningdek, biologik aktivlar voyaga yetgan va voyaga yetmagan biologik aktivlarga ham bo'linadi. Voyaga yetgan biologik aktivlar, voyaga yetmaganlaridan farqli bo'lib, hosili(mahsuloti)ni yig'ib olish o'lchamlari shakllangan, yoxud hosili(mahsuloti)ni yig'ib olishni muntazam ravishda ta'minlashi mumkin bo'lgan aktivlardir.

Baliqchilik xo'jaliklarida mol-mulklar(kapital) va faoliyatni samarali boshqarish uchun buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot axborotlarining foydaliligiga mol-mulklari, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarini obyektiv baholash orqali erishiladi.

Shu munosabat bilan baliqchilik xo'jaliklari uchun baliq mahsulotlarini, 41-sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS (IAS) qoidalariga muvofiq haqqoniy qiymat bo'yicha baholashni amaliyotda qo'llash masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Baliqchilikda hovuz fondi (hovuzlar egallagan yer) va baliq mahsulotlari alohida hisobga olinishi, hovuz fondi – uzoq muddatli aktivlarning bir qismi sifatida, baliqlar esa biologik aktiv sifatida aks ettirilishi lozim.

Biologik aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash uchun ularni asosiy tavsifiy belgilari bo'yicha turkumlash zarur. Baliqchilikda bunday tavsifiy belgilar sifatida baliqlarni yoshi, turi, sifati va muayyan bozor uchun baho shakllantirishga asos bo'ladigan boshqa belgilari bo'yicha turkumlash maqsadga muvofiq.

Baliqchilikdagi biologik aktivlarning hisobini 41-sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS (IAS) qoidalariga muvofiq tashkil etishni ta'minlash maqsadida, hamda 2-jadvaldagi (biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar) turkumlanishga asoslanib, ularning quyidagicha batafsil turkumlanishini tavsiya etamiz (2-rasm).



2-rasm. Baliqchilik tarmog'ida biologik aktivlarning turkumlanishi

Fikrimizcha, baliqchilikdagi biologik aktivlarning ushbu turkumlanishi ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida tan olish hamda aks ettirishning uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, baliqchilik xo'jaliklarida biologik aktivlarni baholash uchun haqqoniy qiymatdan foydalanish zarurati moliyaviy hisobotga, nafaqat axborotdan ichki foydalanuvchilar tomonidan mol-mulklarni va ishlab chiqarishni boshqarish uchun, balki tashqi foydalanuvchilar tomonidan to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun ham zarurdir. Lekin, hozircha faol bozor elementlari to'liq shakllanmaganligi va buning oqibatida haqqoniy qiymatni aniqlash qiyinlashganligi sababli, ayrim biologik aktivlar (malklar, segoletkalar,

to'ldiruvchi to'dadagi yosh baliqlar) va aktivlarning taxmin qilinayotgan sotish xarajatlari chegirilgan bozor bahosi bo'yicha baholash maqsadga muvofiq. Shuningdek, rivojlangan davlatlarda qaror topgan muqobil qiymatlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq: inflyatsiya inobatga olingan holda hisoblangan ichki xo'jalik hisob-kitob bahosi, aktivlar daromadliligi; inflyatsiya indeksi va aktivlar daromadliligi koeffitsiyenti inobatga olingan haqiqiy tannarx; diskontlangan qiymat.

Chavoqlar, segoletkalar, bir yilliklar, to'ldiruvchi yosh baliqlar kabi biologik aktivlar dastlabki tan olinish paytida va har bir hisobot sanasiga haqqoniy qiymat bo'yicha baholanishi lozim. Hovuzlardan ovlab olingan tovar baliqlarni, baliqlarni ovlash paytiga belgilangan taxminiy sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda, adolatli qiymati bo'yicha baholash zarur.

Bunda 1 s. tovar baliqning haqqoniy qiymati (HQ_b) quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqarish tavsiya etiladi:

$$HQ_b = BQ - TX - TSX, \quad (1)$$

Bunda, BQ – 1 s. tovar baliqning bozor qiymati, so'm;

TX – 1 s. tovar baliqni bozorgacha yetkazish uchun transport xarajatlari, so'm;

TSX – 1 s. tovar baliqqa to'g'ri keladigan taxminiy sotish xarajatlari, so'm.

Shunday qilib, mamlakatimizdagi buxgalteriya hisobini normativ-huquqiy tartibga solish tizimi, xususan, uning agrar sohaga oid jihatlari biologik aktivlar qiymatini haqqoniy shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bunga agrar soha korxonalari, xususan, baliqchilik xo'jaliklari amaliyotiga 41-sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS (IAS) qoidalarini tatbiq etish orqali erishiladi. Bunda baliqchilik xo'jaliklarining asosiy faoliyati – biologik aktivlar, xususan, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bog'liq kategoriyalar to'g'ri talqin qilish va qo'llash zarur.

Xulosa va takliflar.

1. Baliqchilikdagi biologik aktivlarga nisbatan 41-sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS(IAS) ning umumiy qoidalari asosida ularni tan olishning quyidagi qoidalari shakllantirildi:

- korxonada biologik aktivlarni o'tgan hodisalar natijasida (biotransformatsiyalanishi bo'yicha) nazorat qiladi;
- korxonaga kelgusida biologik aktivlar bilan bog'liq bo'lgan daromadlar olinish ehtimoli;
- biologik aktivlarning adolatli qiymati yoki tannarxini yetarli darajadagi ishonchlilik bilan o'lchash mumkinligi.

2. Baliqchilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulotlar tannarxini hisoblashni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari:

- *birinchidan*, baliqchilik tarmog'i ishlab chiqarishning tashkiliy texnologik xususiyatlarini aks ettiradigan normativ hujjatlar (BHMS, nizomlar va b). Eng bo'lmaganda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;
- *ikkinchidan*, 41 sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS(IAS)ga sharhlar, uni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqishdan iborat.

3. Baliqchilikda biologik aktivlar va ulardan olinadigan mahsulotlar 41 sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS(IAS)ga muvofiq turkumlandi:

Bu *birinchidan*, ularning buxgalteriya hisobini (sintetik va analitik hisobni) tarmoqning ishlab chiqarish va tashkiliy-texnologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish, natijada, hisob axborotlarining tezkorligi va ishonchliligini hamda nazoratini ta'minlaydi;

ikkinchidan, mamlakatimizda buxgalteriya hisobi amaliyotini moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS-IAS), xususan, 41-sonli «Qishloq xo'jaligi» nomli MHXS qoidalariga muvofiqlashtirishga imkon beradi.

4. Xalqaro tajriba va mamlakatimiz amaliyotini tadqiq qilish natijalarini umumlashtirish hamda ularni uyg'unlashtirish asosida baliqchilikda biologik aktivlarning turkumlanishi ishlab chiqildi. Ularni joriy biologik aktivlar tarkibida voyaga yetgan va voyaga yetmagan toifalarga

bo'lib aks ettirish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Shuningdek, baliqlar mahsulot olish imkoni bo'yicha(mahsuldor va yosh baliqlar); foydalanilish bo'yicha (baliqlantirish materiali va sotishga mo'ljallangan) baliqlarga turkumlandi.

5. Baliqchilik mahsulotlarini baholash va hisobga olishda xalqaro tajribadan foydalanish MHXS (IAS) talablarini ta'minlash hamda xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuv (uyg'unlashuv)ga imkon beradi. Shuningdek, boshqaruv axborotlarining sifatini oshirish, boshqaruv hisobotlari axborotlarining obyektivligi va aniqligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/ Лумепамура /Reference:

Dusmuratov R.D. (2022) *Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", — B.459.*

Kodeks (2022) *O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, – 560 b.*

Menglikulov B.Yu. (2019) *Biologik aktivlarni tan olish va hisobini tashkil etish. Moliya va bank ishi, elektron ilmiy jurnal. 5-son. sentyabr – oktyabr.*

ACCA, (2011) *Международные стандарты финансовой отчетности, 2011: издание на русском языке. М.: Аскери –ACCA, – С.642.*

Болтаев А. (2024) **БИОЛОГИК АКТИВЛАР ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Economics and Innovative Technologies. – Т. 12. – №. 1. – С. 36-47.**

Хоружий Л.И., Доржиев Д.Ц. (2010) *Методика оценки и учета прудовых земель и продукции в рыбовод-ческих организациях / Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве. — №10. – С. 4-7.*